BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN YOZISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

Abdurazoqova Sarvinoz Alisher qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti talabasi

sarvinozabdurazoqova17@gmail.com

Otamurodova Dilfuza Otamurod qizi

Toshkent amaliy fanlar universiteti

o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarni yozish ko'nikmalarini shakllantirishda husnixat malakalarini va shu o'rinda orttiradigan metodlar haqida fikr yuritiladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning chiroyli yozuvga o'rgatishda qanday usullardan foydalanish mumkinligini va darsliklar savod chiqarishda bilim va tushunchalarni bolalar ongiga sodda va tushunarli yetkazishga alohida e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Alifbe,yozuv qurollari, harflar balandligi va qiyaligi, jismoniy mashq,husnixat daftari, darslik.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ПИСЬМА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА.

Аннотация:(В этой статье мы рассмотрим методы развития навыков письма у учащихся младших классов и способы их приобретения. Особое внимание уделяется методам, с помощью которых можно научить учащихся хорошо писать в начальных классах, донести знания и понятия до сознания детей в простой и понятной форме.

Ключевые слова: Алфавит, письменные принадлежности, высота и наклон букв, физические упражнения, тетрадь, учебник.

METHOD OF DEVELOPING WRITING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS.

Annotation: In this article, we will consider the methods of developing writing skills of elementary school students and the methods of acquiring them. Special attention is paid to the methods that can be used to teach students to write well in the primary

class, and to convey knowledge and concepts to the minds of children in a simple and understandable way.

Key words: Alphabet, writing instruments, height and slope of letters, physical exercise, notebook, textbook.

Yozuvga o'rgatish o'quvchilar ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri qo'yish, harfni yozishda yozuv chiziqlari e'tibor bilan boshlanadi. Ular bo'ylab qo'lni harakatlantirishni esda saqlashi, harfni harfga ulashi, qatorga sig'ish-sig'masligi mo'ljallanishi lozim. Bular o'quvchini aqliy va jismonan charchatadi, ayniqsa, barmoq va yelka muskullari charchaydi, bular darsda ikki-uch marta fizkultura mashqlarini o'tkazishni taqozo qiladi. husnixatga o‘rgatishdan asosiy maqsad kichik yoshdagi o‘quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o‘rgatish ularning chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish yozuv daftarlari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikrmulohaza yuritilgan Boshqa fanlar qatori chiroyli yozuvga o’rgatish ham o’zining tarixiy manbalariga ega bo’lgan holda o’sib rivojlanib bormoqda. O’quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun diqqat,sezgi,idrok etish va xotira kabi psixofizologik funksiyalar ishtirok etganligini ko’ramiz. Chiroyli yozish jarayonida ko’rish va eshitish sezgilari idrok qilinadi. Chiroyli yozuvga o’rgatishda quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

1.Yozuv qurollaridan to’g’ri foydalanish.

2.Parta ustida daftarni to’g’ri qo’yish.

3.Yozayotganda gavdani to’g’ri tutish.

4.Daftar va ko’z oralig’ini me’yorda ushlash.

5.O’z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o’rganish.

6.Harflarni bir-biriga bog’lab yozishga o’rganish.

7.Harflarning balandlik va oralig’ini bir xilda yozish.

8.Harflarning 75 daraja qiyaligini to’g’ri saqlash.

Quyida biz hozirgi kunda boshlang’ich sinf o’qituvchilari uchun zarur bo’lgan eng asosiy yozuv usullarini ko’rsatib o’tamiz. 1.Namunaga qarab yozish usuli. O‘qituvchi yozish vaqtida 65 gradus qiyalikda yozishni, buning uchun daftar parta ustiga 25 gradus qiyalikda qo‘yilishini ta'kidlab turadi. Orfografiya so’zi grekcha «to‘g’ri» va «yozaman» so‘zlaridan olingan bo‘lib, adabiy tilning yozma shakli bilan bog’liq. Orfografiya to‘g’ri yozish haqidagi qoidalar ko‘nikmasidir. Orfografiyani bilmay turib,

fikrni adabiy til normalari asosida yozma ifodalab bo‘lmaydi. O‘quvchilarning orfografik savodxonligi qaqida g’amxo‘rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to‘g’ri ifodalash, kishilar bilan o‘zaro xatosiz muomala qilish uchun g’amxo‘rlik demakdir. 1-sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'ib, bir necha xil vazifani o'z ichiga oladi: bolalar o'qituvchining so'zini tinglaydilar, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, ayrim matnlarni ko'chirib yozadilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar va hokazo. O'qituvchi yozuv malakasiga o'rgatishga boshlashdan oldin o'quvchilar bilan yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan tushunchalar ustida ish olib borishi lozim. Bu o'quvchilarga harflarning shaklini uning harakatini yaxshi tushunishlariga katta yordam beradi. 1-sinfda yozuv mashqlari uchun berilgan alifbegacha bo'lgan davrni birmuncha uzaytirish mumkin. Ammo bu davrda yozuv darsi bilan o'qish darsi o'rtasida birmuncha farq bo'ishi mumkin, bundan cho'chimaslik kerak, chunki bu vaqtda o'quvchilar so'z va harflarni o'tilgan materiallar asosida yozib o'rganadilar. 1-sinf o'quvchilari bilan tayyorgarlik mashqlarini to'g'ri olib borish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish kerak:

1. Partada to'g'ri o'tirishga, avtoruchkani to'g'ri ushlashga va daftarn to'g'ri tutishga o'rgatish.

2. O'quvchilarning husnixatga qiziqishlarini o'stirish

3. Bolalarning taqqoslash va chamalash qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlarni bajartirish.

4. Qo'l va barmoq muskullarining harakatini o'stirish. Tayyorgarlik mashqlarini bajarish uchun o'quvchilarni qora va rangli qalamlar hamda yozuv daftari bilan ta'minlash lozim.

O'qituvchining bu davrda rangli bo'rlardan foydalanishi yaxshi samaralar beradi. Bu sinfda o’quvchilar qiynalmay erkin yozishga o’tadilar, ularning yozuv tezligi ham ancha yuqori darajaga ko’tariladi. Yozuv tezligi past bo’lgan o’quvchilar esa ona tilidan berilgan topshiriqlarni bajarishda orqada qoladilar, ayniqsa, bu narsa diktant va yozma ishlarni bajarishda o’quvchilarga ancha qiyinchilik tug’diradi. Shuning uchun ham bu sinfda tez yozish malakasini o’stirish juda muhimdir

Chiroyli yozuvga o’rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko’rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskada barcha o’quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o’quvchilarga daftarda alohida-alohida ko’rsatib berish lozim.O’quvchilarning vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarni o’z daftarlarida to’g’ri va bexato aks ettirishdir. Doskada yozib ko’rsatilayotgan har bir harf barcha o’quvchilarga aniq ko’rinib turishi shart.Agar ayrim o’quvchilar uni ko’ra

olmayotgan bo’lsalar, qaytadan takrorlab ko’rsatish lozim.Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog’lanishini ko’rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash lozim. 2.Namunaga qarab ko’chirib yozish usul. Bu juda eski usul bo’lib, hozirgi kunda ham o’z qimmatini yo’qotgani yo’q.O’quvchilar asosan, harflarning shaklini “Husnixat” kitobidagi namunaga qarab ko’chirib yozadilar. Namunaga qarab ko’chirib yozish, tayyor harflarning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo’lib, ularning har ikkalasini qaysi vaqtda qo’llashni o’qituvchi yaxshi bilishi kerak.

Asosan chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Chiroyli yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim, shundagina o‘quvchilar uni to‘liq o‘zlashtirishlari va amalda qo‘llashlari mumkin. Masalan, so‘zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so‘zlarda harf unsurlari va harflar oralig‘ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish kabi qoidalarni asta-sekin o‘z o‘rnida o‘rgatib borish lozim. Yozuvning qiyaligi haqidagi tushunchalar chuqur singdirilgandan so‘ng, harflarni bir xil masofada tekis yozish qoidalari o‘rgatiladi. Harflarni qo‘l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o‘rganilgandan so‘ng, so‘zlarni qo‘l harakatini uzmasdan yozish qoidalari o‘rgatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bolalar o‘qishni bilish bilmasligidan qat'i-nazar, uch yoshidan boshlab so‘zlar va rasmlar o‘rtasidagi farqni ko‘ra boshlaydi. Biroq bola bunday erta yoshda yozishga tayyor bo‘lmaydi: ularning miyasi kerakli ko‘nikmalarni 5-7 yoshga kelib shakllantiradi.

Yozishga tayyorlikni quyidagicha tekshirish mumkin:

Bolaga bir varaq qog‘oz berib, biror narsa chizishni taklif qiling.

bir qismini bo‘yashni so‘rang.

Agar bola qog‘ozni doimiy ravishda aylantirib, chiziqlar yo‘nalishini bazo‘r o‘zgartirsa, demak, u harflarni yozishga hali tayyor emas.

Inson yozuviga qarab uni qanday inson ekanligini bilib olish mumkin.Kimning yozuvi to’gri va aniq bo’lsa, uning dunyoqarashi va estetik didi yuqori bo’ladi.Yozuvning noaniq va nuqsonliligi esa dangasalik va hafsalasizlik belgisi hisoblanadi.Bu maqolada boshlang’ich sinf ona tili darslarida o’quvchilarning chiroyli yozuvga o’rgatishda qanday usullardan foydalanish mumkinligini bilib olamiz

Savod o‘rgatish jarayonida bolalar juda sekin yozadilar, uz fikrini, xatto bir yozuv bilan yozma ifodalash uchun ham yarim oylar o‘tadi. Yozuv malakasi o‘qish

malakasi bilan uzviy bog'liqdir. Bola yomon o'qisa, yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi. Yozish va o'qish uchun bolaning umumiy nutqiy rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bola yozuvning texnik tomoniga katta jismoniy kuch sarflaydi. Savod o'rgatish oxirida bola bir darsda 20 tacha so'zni yozishi mumkin. Savod o'rgatish davrida bolalarni yozuvga o'rgatish uchun turli vaqtlarda turli xil chiziqli daftarlardan foydalanilgan: dastlab chiziqsiz silliq qog'oz ishlatilgan bo'lsa, keyin quyoq yopiq chiziqlar bilan kesilgan uch chiziqli daftardan foydalanilgan. Bunday daftarda yozuvga o'rgatilgan bola boshlang'ich sinflarni bitirgunga qadar besh xil daftarga yozishni o'rganishi talab etilar edi. Hozirgi vaqtda yozuvga o'rgatish uchun ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, boshlang'ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini singdirish har bir o'qituvchidan chidam va mahorat talab etadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarini ham bajarish imkonini berishi mumkin. Boshlang'ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini o'rgatish har bir o'qituvchidan chidam va mahorat talab etadigan muhim jarayondir. farzandlarimizni ilm-fan va ta'lim-tarbiya asosida voyaga yetkazish maqsadga muvofiq ekan, o'z o'rnida tarbiya esa ma'naviyat bilan chambarchas bog'liqdir. Zero, yoshlar kelajak egalari hisoblanadi. Yoshlarimiz ta'lim-tarbiyasida esa ma'naviy tarbiya katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M.G'ulomov, K.Tursunova, D.Po'latova "Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish" Uslubiy qo'llanma Toshkent "Turon Iqbol" 2013 2. G'ulomovM. "Husnixat"1-sinflar uchun-T.:Cho'lpon 2003 3. G'ulomovM. "Husnixat"2-sinflar uchun-T.:Cho'lpon 2003 4. www.ziyonet.uz

2.T.G'afforova, X. G'ulomova. G. Eshturdiyeva. 1-sinfda savod o'rgatish darslari. - T.: „O'qituvchi, 1996. 2. T. G'afforova, E. Shodmonov, X. G'ulomova. Ona tili (1 - sinf uchun darslik).T.„Sharq", 2005. 3.T. G'afforova, E.Shodmonov, G. Eshturdiyeva. Alifbe (Savod). - T.: „O'qituvchi", 1999. 4. Eshbekova Gulabahor Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish ko'nikmalarini shakllantirish muammolari № 12/2 (3)-202

3. Alifbe 1-sinf [Matn]: darslik / R.Safarova, M.Inoyatova. -Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021. - 80 .

4.Bezrukix, M.M. Yozishni o‘rganishda qiyinchiliklarga duch kelgan bolalar bilan mashg'ulotlar uchun mashqlar / M.M. Bezrukix, S.P. Efimov. - M .: Auris, Iceberg nashriyoti, 1991

5. Eshbekova Gulabahor Maktabgacha yoshdagi bolalarning yozish ko‘nikmalarini shakllantirish muammolari № 12/2 (3)-202

6. Rohatoy Safarova, Muhayyo Inoyatova. Alifbe 1-sinf [Matn] darslik.- Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2021 -80 b. 4. Qo'ldoshev R. Maktab o ‘quvchilarining grafik va kalligrafik qobiliyatlarini shakllantirishning metodologik asoslari– 2022. – T. 22. – №. 22.

7. Y.Y. Azimov, R.A.Qo'ldoshev. «Husnixatga o 'rgatishning amaliy asoslari» (Metodik qo'llanma)-Toshkent. «Turon Zamin Ziyo» nashriyoti, 2017.-132 b. 2. Safarova R., M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova "Alifbe" (qayta ishlangan 16-nashri). Toshkent. "Ma'naviyat" 2018 yil.

8. Azimov, Yunus, and Rustambek Qo'ldoshev. Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari. GlobeEdit, 2020.

9. Azimov, Y. Y., and R. A. Qo'ldoshev. "Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari (metodik qollanma). GlobeEdit, 2020.-141bet." 5. Qo'ldoshev, R. A.,

10.WWW.Google .uz